

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 6



@QMI_Institut



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
6-son
noyabr, 2025

November 2025
Volume 3
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar
nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

*Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

*Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi
Milliy fanlar akademiyasi)*

*Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston
agrar universiteti)*

*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva
energetika instituti, Rossiya)*

*Voynash Sergey Aleksandrovich - i.f.n. dotsent (Qozon Volga bo'yi (federal)
universiteti)*

*Pulyayeva Valentina Nikolayevna - i.f.d. professor (Rossiya Federatsiyasi hukumati
qoshidagi moliya universiteti)*

*Morkovkin Dmitriy Yevgeniyevich - i.f.d. professor (Rossiya Federatsiyasi hukumati
qoshidagi moliya universiteti)*

*Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi
Milliy fanlar Akademiyasi)*

*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat
universiteti)*

*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Chupin Aleksandr Leonidovich - i.f.d., professor, (P.Lumumba nomidagi Rossiya
xalqlar do'stligi universiteti)*

*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar
universiteti)*

*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazarot
fanlari instituti)*

*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universiteti)*

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d. dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Inflyatsiya darajasining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri: O'zbekiston va Janubiy Koreya tajribasi asosida tahlil

Gafurova Lola Ruiddinovna

Влияние уровня инфляции на экономическую безопасность: анализ на основе опыта Узбекистана и Южной Кореи

Гафурова Лола Руиддиновна

The impact of inflation on economic security: an analysis based on the experience of Uzbekistan and South Korea

Lola Ruiddinovna Gafurova

Received: November 14, 2025 Revised: November 17, 2025

■ Accepted: November 20, 2025 ■ Published Online: December 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston va Janubiy Koreya misolida inflyatsiya darajasining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar va so'nggi yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida inflyatsiyaning milliy iqtisodiyot, aholining real daromadlari, investitsion muhit, byudjet siyosati va makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri o'rganildi. Maqolada shuningdek, inflyatsiya darajasini pasaytirish va nazorat qilishning samarali strategiyalari, siyosiy choralar va institutsional mexanizmlar tahlil qilindi. O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish va investitsion ishonchni kuchaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar keltirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inflyatsiya darajasi va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud bo'lib, milliy siyosat va iqtisodiy boshqaruv ushbu jarayonni samarali boshqarishning muhim omili hisoblanadi.
- **Kalit so'zlar:** inflyatsiya, iqtisodiy xavfsizlik, pul-kredit siyosati, narx barqarorligi, milliy iqtisodiyot, investitsiya muhit, byudjet siyosati, ishlab chiqarish, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, valyuta kursi, inflyatsion risklar
- **Аннотация:** В данной статье представлен подробный анализ влияния инфляции на экономическую безопасность на примере Узбекистана и Южной Кореи. Исследование рассматривает, как инфляция влияет на национальную экономику, реальные доходы населения, инвестиционный климат, бюджетную политику и макроэкономическую стабильность на основе статистических данных и последних экономических показателей. В статье также проведен анализ эффективных стратегий, политических мер и институциональных механизмов контроля и снижения инфляции. Для Узбекистана представлены практические рекомендации, направленные на укрепление экономической безопасности, повышение благосостояния граждан и

укрепление доверия инвесторов. Результаты исследования показывают прямую взаимосвязь между уровнем инфляции и экономической безопасностью, подчеркивая важность национальной политики и экономического управления для эффективного регулирования данного процесса.

- **Ключевые слова:** инфляция, экономическая безопасность, денежно-кредитная политика, стабильность цен, национальная экономика, инвестиционная среда, бюджетная политика, производство, экономическая стабильность, экономический рост, валютный курс, инфляционные риски
- **Abstract:** This article provides a detailed analysis of the impact of inflation on economic security, using Uzbekistan and South Korea as case studies. The study examines how inflation affects the national economy, real incomes of the population, investment environment, fiscal policy, and macroeconomic stability based on statistical data and recent economic indicators. The article also analyzes effective strategies, policy measures, and institutional mechanisms for controlling and reducing inflation. Practical recommendations for Uzbekistan are presented, aimed at strengthening economic security, improving the welfare of citizens, and enhancing investor confidence. The results of the study demonstrate a direct correlation between the level of inflation and economic security, highlighting the importance of national policy and economic management in effectively managing this process.
- **Keywords:** inflation, economic security, monetary policy, price stability, national economy, investment environment, fiscal policy, production, economic stability, economic growth, exchange rate, inflation risks

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlik masalasi har bir mamlakatning milliy manfaatlarini himoya qilish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro maydonda yuz berayotgan iqtisodiy inqirozlar, narxlarning o'zgaruvchanligi, geosiyosiy xavf omillari va pandemiyalarning oqibatlari shuni ko'rsatadiki, har qanday davlatning iqtisodiy mustaqilligi va aholi farovonligi inflyatsiya jarayonlarini boshqarish samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun inflyatsiya darajasi mamlakat iqtisodiy xavfsizligining eng muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi.

Inflyatsiya – bu narxlar umumiy darajasining o'sishi natijasida pulning xarid qobiliyatining pasayish jarayoni bo'lib, u nafaqat iqtisodiy tizimning ichki muvozanatini, balki moliyaviy barqarorlikni ham izdan chiqarishi mumkin. Inflyatsiya darajasining oshib ketishi aholining real daromadlarini kamaytiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini ko'paytiradi, investitsion muhitni yomonlashtiradi va jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Shu sababli inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish, uni maqbul darajada saqlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan buyon milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, barqaror makroiqtisodiy muhit yaratish, narxlar barqarorligini saqlash va inflyatsiyani pasaytirish borasida qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa so'nggi yillarda bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, Markaziy bank mustaqilligini kuchaytirish va pul-kredit siyosatini takomillashtirish orqali inflyatsiya darajasini izchil kamaytirish maqsad qilingan. Shu bilan birga,

global energiya narxlarining o'sishi, import qilinayotgan mahsulotlar hajmi va ijtimoiy tovarlar bozoridagi o'zgarishlar ichki inflyatsiya bosimiga ma'lum ta'sir ko'rsatmoqda.

Janubiy Koreya tajribasi bu borada alohida e'tiborga loyiqdir. Mamlakat o'tgan asrning 70–80-yillarida yuqori inflyatsiya bosimini boshdan kechirgan bo'lsa-da, keyinchalik pul-kredit siyosatini qat'iylashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy modelni joriy etish orqali inflyatsiya darajasini past, barqaror darajada ushlab turishga erishdi. Natijada Koreya iqtisodiyoti so'nggi o'n yilliklarda yuqori raqobatbardoshlikka ega, barqaror va xavfsiz tizim sifatida shakllandi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun Janubiy Koreya tajribasini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda inflyatsiyani jilovlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni xalqaro amaliyot bilan solishtirish, ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini baholash orqali yanada samarali yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi – inflyatsiya darajasining iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini tahlil qilish, O'zbekiston va Janubiy Koreya tajribasini qiyosiy o'rganish va mavjud muammolarga yechim taklif etishdan iborat.

Vazifalar esa quyidagilardan iborat:

- inflyatsiya va iqtisodiy xavfsizlik tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- inflyatsiyaning iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir mexanizmlarini aniqlash;
- O'zbekiston va Janubiy Koreya misolida inflyatsiya jarayonlarini solishtirish;
- milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun amaliy takliflar ishlab chiqish.

Inflyatsiya iqtisodiyotdagi eng muhim va murakkab jarayonlardan biridir. Iqtisodiy adabiyotlarda inflyatsiya

tushunchasi “pul massasining tovarlar va xizmatlar massasiga nisbatan haddan ziyod ko‘payishi natijasida narxlarning umumiy darajasining o‘shishi” sifatida ta’riflanadi. Boshqacha aytganda, inflyatsiya — bu pulning xarid qobiliyatining pasayish jarayonidir.

Inflyatsiya iqtisodiy muvozanatni buzadi, ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi nisbatni o‘zgartiradi hamda pul-kredit tizimiga bosim o‘tkazadi. U turli sabablarga ko‘ra vujudga keladi:

- Talon-taroj inflyatsiyasi (demand-pull inflation) — aholining iste’mol talabi ishlab chiqarish imkoniyatlaridan ortib ketganida yuz beradi;
- Xarajat inflyatsiyasi (cost-push inflation) — ishlab chiqarish xarajatlari (xomashyo, energiya, ish haqi) oshganida narxlar ko‘tariladi;
- Pul emissiyasi bilan bog‘liq inflyatsiya — ortiqcha pul muomalaga chiqarilganda, tovarlar taklifi esa sekin o‘sadi.

Shuningdek, inflyatsiyaning ochiq (open) va yashirin (suppressed), mo‘tadil (mild), tezkor (galloping), va giperinflyatsiya turlari farqlanadi. Mo‘tadil inflyatsiya iqtisodiyot uchun zararli emas, aksincha, u ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirishi mumkin. Ammo inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lsa, u iqtisodiy xavfsizlikni izdan chiqaradi, narxlar barqarorligini buzadi va aholi farovonligini pasaytiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik — bu milliy iqtisodiy tizimning ichki va tashqi tahdidlarga bardosh bera olish, barqaror rivojlanish imkoniyatlarini saqlab qolish qobiliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, bu davlatning iqtisodiy mustaqilligi, resurslardan oqilona foydalanish, aholi farovonligini ta’minlash va strategik tarmoqlarni himoya qilish bilan bog‘liq holatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “iqtisodiy xavfsizlik – bu mamlakat barqaror taraqqiyotining poydevori, mustaqillikning kafolatidir.”

Iqtisodiy xavfsizlikni baholashda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar hisobga olinadi:

1. Makroiqtisodiy barqarorlik – YAIM o‘shish sur‘atlari, inflyatsiya darajasi, budjet taqchilligi.
2. Moliyaviy xavfsizlik – milliy valyuta barqarorligi, tashqi qarz hajmi, valyuta zaxiralari.
3. Ijtimoiy xavfsizlik – aholi real daromadlari, bandlik darajasi, kambag‘allik ko‘rsatkichlari.
4. Resurs xavfsizligi – energiya, oziq-ovqat, suv va xomashyo ta’minoti.
5. Investitsion xavfsizlik – investitsiya muhitining barqarorligi va investorlar ishonchi.

Mazkur ko‘rsatkichlarning har biri o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ayniqsa inflyatsiya darajasi ularning barchasiga ta’sir ko‘rsatadi. Inflyatsiya oshsa, davlat byudjeti xarajatlari ortadi, aholining real daromadlari kamayadi, ishlab chiqarish

tannarxi yuqorilaydi, bu esa iqtisodiy xavfsizlik darajasining pasayishiga olib keladi.

Inflyatsiya va iqtisodiy xavfsizlik o‘rtasida bevosita, chiziqli bo‘lmagan murakkab bog‘liqlik mavjud. Mo‘tadil darajadagi inflyatsiya iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi, ishlab chiqarish va investitsiyalarni jonlantiradi. Ammo inflyatsiya 10–15 foizdan yuqori darajaga chiqsa, u iqtisodiy xavfsizlik uchun jiddiy xavfga aylanadi.

Inflyatsiyaning iqtisodiy xavfsizlikka ta’sirini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin:

1. Aholining real daromadlari pasayadi. Narxlarning oshishi iste’mol tovarlarining qimmatlashuviga olib keladi, bu esa ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va kambag‘allik darajasini oshiradi.
2. Investitsion muhit yomonlashadi. Yuqori inflyatsiya sharoitida investorlar uzoq muddatli loyihalarga kirishishni xavfli deb biladi, chunki foyda darajasi noaniq bo‘ladi.
3. Pul-kredit tizimi beqarorlashadi. Inflyatsiya yuqori bo‘lsa, banklar foiz stavkalarini oshiradi, kredit olish qimmatlashadi, bu esa tadbirkorlik faolligini pasaytiradi.
4. Byudjet xarajatlari ortadi. Inflyatsiya natijasida davlat xarajatlari (maosh, pensiya, subsidiyalar) ko‘payadi, bu esa moliyaviy xavfsizlikni izdan chiqaradi.

Inflyatsiyaning boshqarish mexanizmlari asosan monetar siyosat vositalari orqali amalga oshiriladi. Markaziy bank asosiy foiz stavkasi, pul massasi hajmi va kredit siyosatini tartibga solish orqali narxlar barqarorligini saqlashga intiladi. Shu bilan birga, fiskal siyosat (soliq va byudjet xarajatlari) ham inflyatsiyaga ta’sir ko‘rsatadi: ortiqcha davlat xarajatlari inflyatsion bosimni kuchaytiradi, qat’iy fiskal siyosat esa uni kamaytiradi.

Xalqaro tajribada ko‘plab mamlakatlar “maqsadli inflyatsiya” siyosatini qo‘llash orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga erishgan. Masalan, Janubiy Koreyada inflyatsiya darajasi odatda 2% atrofida ushlab turiladi, bu esa barqaror makroiqtisodiy muhitni ta’minlaydi. O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lgan bo‘lsa-da, Markaziy bank 2025 yilga kelib uni 5 foiz atrofida barqarorlashtirishni maqsad qilgan. Natijada aytish mumkinki, inflyatsiya darajasini nazorat ostida ushlab turish — bu faqat narxlar siyosati emas, balki milliy iqtisodiy xavfsizlik strategiyasining ajralmas qismidir. Inflyatsiyaning jilovlash orqali davlat ichki bozorni barqarorlashtiradi, aholi daromadlarini himoya qiladi, investitsiyalar oqimini rag‘batlantiradi va iqtisodiy xavfsizlik poydevorini mustahkamlaydi. Inflyatsiya – bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muvozanatga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadigan hodisadir. Narxlar umumiy darajasining o‘shishi aholining turmush darajasiga, iste’mol strukturasi va jamiyatdagi ijtimoiy tenglikka bevosita ta’sir qiladi. Aholining asosiy qismi, ayniqsa, past daromadli qatlamlar, inflyatsiyadan eng

ko'p zarar ko'radigan toifaga kiradi.

Inflyatsiya oshgan sari iste'mol savati tarkibidagi asosiy tovarlar va xizmatlarning narxi tez ko'tariladi, bu esa aholining xarid qobiliyatini pasaytiradi. Natijada real daromadlar kamayadi, jamg'arma imkoniyatlari torayadi va ijtimoiy norozilik kuchayadi. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan xavfli holat bo'lib, u ijtimoiy beqarorlikka sabab bo'lishi mumkin. Inflyatsiyaning ijtimoiy oqibatlari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- Kambag'allik darajasi oshadi. Narxlar oshishi natijasida aholining real daromadi pasayadi va ko'proq fuqarolar ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lib qoladi.

- Daromadlar tengsizligi chuqurlashadi. Yuqori daromadli qatlam inflyatsiya sharoitida o'z sarmoyasini aktivlarga (ko'chmas mulk, valyuta, oltin) yo'naltirib foyda oladi, past daromadli qatlam esa iste'mol tovarlari narxining o'sishidan zarar ko'radi.

- Ishsizlik xavfi ortadi. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi natijasida ayrim korxonalar faoliyatini qisqartiradi yoki yopadi, bu esa ijtimoiy xavfsizlikka salbiy ta'sir qiladi.

Ijtimoiy beqarorlikning kuchayishi esa iqtisodiy xavfsizlikning pasayishiga olib keladi. Shu sababli, davlat tomonidan inflyatsiyani nazorat qilish bilan bir qatorda aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Aholining real daromadi — bu ularning nominal daromadining narxlar o'sishi darajasiga nisbatan moslashtirilgan shaklidir. Ya'ni, nominal daromadlar oshgan taqdirda ham, agar inflyatsiya undan tezroq o'sayotgan bo'lsa, aholi real farovonligi pasayadi. Masalan, agar yillik ish haqi o'sishi 10% bo'lsa, ammo inflyatsiya 12% darajada saqlansa, real daromad 2% ga kamayadi. Shu sababli, inflyatsiya aholining moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid soladi. O'zbekiston misolida, so'nggi yillarda ish haqi va pensiyalar miqdori oshirilayotgan bo'lsa-da, ayrim davrlarda narxlar o'sish sur'ati bu o'sishni qoplab ketgan. Xususan, 2022 yilda O'zbekiston Respublikasida rasmiy inflyatsiya darajasi 12,3% ni tashkil etgan, bu esa aholining xarid qobiliyatiga sezilarli bosim o'tkazgan. Shu sababli, aholining real daromadini saqlab qolish uchun nafaqat maoshlarni indeksatsiya qilish, balki inflyatsiya darajasini pasaytirish ham muhim.

Janubiy Koreya tajribasida esa, inflyatsiya darajasi uzoq yillar davomida 2–3% atrofida bo'lganligi sababli, ish haqi o'sishi aholining real daromadlarini sezilarli darajada oshirish imkonini bergan. Koreya hukumati muntazam ravishda narxlar barqarorligini saqlash uchun “maqsadli inflyatsiya” siyosatini yuritadi. Bu tizimga ko'ra, Markaziy bank inflyatsiya uchun aniq maqsad belgilaydi (masalan, 2%), va pul-kredit siyosatini shu maqsadga yo'naltiradi. Natijada aholining daromadlari barqaror o'sib, iqtisodiy xavfsizlik

mustahkamlanadi.

Inflyatsiya iqtisodiyotning investitsion faoliyatiga ham bevosita ta'sir qiladi. Yuqori inflyatsiya sharoitida investorlarda noaniqlik kuchayadi, chunki narxlar va resurs xarajatlarining o'zgaruvchanligi foyda darajasini oldindan baholashni qiyinlashtiradi. Bu holat uzoq muddatli loyihalarga sarmoya kiritish istagini pasaytiradi. Bundan tashqari, inflyatsiya moliyaviy bozorlar barqarorligiga ham tahdid soladi. Yuqori inflyatsiya sharoitida foiz stavkalari oshadi, bu esa kredit olishni qimmatlashtiradi. Tadbirkorlik subyektlari uchun investitsion xarajatlar ortadi, natijada ishlab chiqarish hajmi qisqaradi. Shuningdek, inflyatsiya davlat byudjeti va milliy valyuta barqarorligiga ham ta'sir qiladi. Narxlarning o'sishi natijasida davlat xarajatlari (maosh, pensiya, subsidiya) ortadi, biroq soliq tushumlari real qiymatda kamayadi. Bu moliyaviy nomutanosiblikni keltirib chiqaradi va iqtisodiy xavfsizlik darajasini pasaytiradi. Yuqori inflyatsiya, shuningdek, xorijiy investorlarning ishonchini kamaytiradi. Chunki bunday sharoitda valyuta qadrsizlanish xavfi ortadi. Natijada xorijiy kapital oqimi kamayadi, bu esa investitsion xavfsizlik uchun salbiy holatdir. O'zbekiston Markaziy banki 2019 yildan boshlab “inflyatsion targeting” siyosatini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Bu yondashuvning maqsadi — inflyatsiya darajasini prognoz asosida nazorat qilish va investorlar ishonchini oshirishdir. Shu orqali iqtisodiyotda uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash rejalashtirilgan. Janubiy Koreya tajribasida esa 1998 yildan boshlab inflyatsion targeting tizimi muvaffaqiyatli qo'llanilib kelmoqda. Koreya Markaziy banki yillik inflyatsiya maqsadini 2% atrofida belgilaydi va iqtisodiy faoliyatni shu yo'nalishda muvozanatlashtiradi. Natijada mamlakatda investorlar uchun yuqori ishonchli moliyaviy muhit yaratilgan. Inflyatsiya moliyaviy xavfsizlikka yana bir yo'nalishda — valyuta barqarorligi orqali ta'sir ko'rsatadi. Yuqori inflyatsiya sharoitida milliy valyuta qadrsizlanadi, bu esa import qilinadigan mahsulotlar narxining yanada oshishiga olib keladi. Import inflyatsiyasi shakllanadi, bu esa tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ham zaiflashtiradi. Shu bois ko'plab mamlakatlar, jumladan O'zbekiston ham, valyuta siyosatini ehtiyotkorlik bilan yuritadi, oltin-valyuta zaxiralarini ko'paytirishga intiladi. Inflyatsiyaning jilovlash orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim vositalaridan biri — bu ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash va ichki bozorni to'ldirishdir. Agar importga yuqori darajada qaramlik saqlansa, tashqi narxlarning o'sishi ichki inflyatsiyani tezlashtiradi. Shu bois O'zbekistonda “import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish” siyosati inflyatsiyani kamaytirish bilan bir qatorda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda ham muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida narxlar barqarorligini saqlash, pul-kredit siyosatini

liberallashtirish va inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. 2017-yildan boshlab valyuta bozorining erkinlashtirilishi, tarif siyosatining o'zgarishi hamda global narx bosimi inflyatsiyaning ma'lum darajada oshishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda mamlakatdagi yillik inflyatsiya darajasi 11,1% ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2019-yildagi 15,2% dan pasaygan bo'lsa-da, hali ham iqtisodiy xavfsizlik uchun sezilarli xavf omili sifatida baholangan. 2021-yilda pandemiyadan keyingi tiklanish davrida iqtisodiyotda talabning tez o'sishi, import qilinadigan mahsulotlar narxining ko'tarilishi va energetika bozoridagi o'zgarishlar inflyatsiyani 10,9% darajada ushlab turishga olib keldi. 2022-yilda esa global oziq-ovqat inqirozi va Rossiya–Ukraina mojarosining bilvosita ta'siri sababli inflyatsiya 12,3% ga yetdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023-yilda qat'iy pul-kredit siyosatini olib borib, foiz stavkalarini oshirish orqali ichki talabni chekladi. Natijada yillik inflyatsiya darajasi 9,8% atrofida shakllandi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, inflyatsiya sur'atlari pasayish tendensiyasini davom ettirib, 9–9,5% atrofida bo'ldi. Markaziy bankning 2025-yil prognozlariga ko'ra, inflyatsiya 7–8% oralig'ida barqarorlashadi. Bu raqamlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligining muhim indikatoridir. Yuqori inflyatsiya aholining real daromadlarini kamaytiradi, korxonalar uchun ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va investitsion muhitni yomonlashtiradi. O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligi Konsepsiyasida narx barqarorligi milliy iqtisodiyotning asosiy kafolati sifatida ko'rsatilgan. Shu bois, 2020-yildan boshlab "inflyatsion targetlash" tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Pul-kredit siyosatining qat'iyalashtirilishi, fiskal intizomni mustahkamlash, davlat xarajatlarini optimallashtirish hamda ijtimoiy tovarlar bozorida raqobatni kuchaytirish orqali inflyatsiyani nazorat qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, aholining iste'mol savatchasida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi yuqori (taxminan 40–45%) bo'lgani sababli, import narxlari o'zgarishlari ichki inflyatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik strategiyasida ichki ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash zaruratini kuchaytiradi.

Janubiy Koreya Respublikasi so'nggi 40 yil ichida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim tajriba to'plagan mamlakatlardan biridir. 1970–1980-yillarda mamlakatda inflyatsiya darajasi 20–25% atrofida bo'lib, iqtisodiy o'sish bilan birga narxlar barqarorligiga erishish muammosi mavjud edi. Biroq 1990-yillardan boshlab Koreya hukumati qat'iy pul-kredit siyosati, fiskal intizom va eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy model orqali inflyatsiyani pasaytirishga erishdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Janubiy Koreyada 2020-yilda inflyatsiya darajasi 0,5%, 2021-yilda 2,5%, 2022-yilda esa

global energiya va oziq-ovqat inqirozlari tufayli 5,1% gacha oshgan. 2023-yilda inflyatsiya darajasi 3,6%, 2024-yilda esa 2,5% atrofida bo'ldi (WorldData.info, 2024). Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatning pul-kredit siyosati aniq va barqaror ishlayotganini ko'rsatadi. Janubiy Koreyada inflyatsiya darajasini past va barqaror ushlab turish iqtisodiy xavfsizlikning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu maqsadda Markaziy bank inflyatsiya targetlash siyosatini 1998-yildan boshlab joriy qilgan. Hozirda inflyatsiya maqsad darajasi 2% atrofida belgilangan. Bunday siyosat investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi, aholi daromadlarining real qiymatini saqlab qoladi hamda iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Koreya hukumati inflyatsiya xavfini kamaytirish uchun bir nechta asosiy yo'nalishlarda ish olib bormoqda:

1. Monetar siyosat barqarorligi – foiz stavkalari o'zgarishlarini ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish, pul massasi o'sishini nazorat qilish.
 2. Fiskal intizom – byudjet defitsitini cheklash, davlat qarzini nazorat ostida ushlab turish.
 3. Import diversifikatsiyasi – energiya va oziq-ovqat importini bir manbadan bog'lanmaslik orqali narx zarbasini kamaytirish.
 4. Texnologik modernizatsiya – ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali narx bosimini pasaytirish.
- Natijada, Koreya iqtisodiyoti yuqori darajada barqaror va xavfsiz tizimga aylandi. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakatning yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sish sur'ati 2,4%, ishsizlik darajasi esa 3% dan past bo'lib, inflyatsiyaning past darajasi bilan uyg'unlikda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlab turibdi. O'zbekiston va Janubiy Koreya misolida ko'rinadiki, inflyatsiya darajasini boshqarish siyosatining samaradorligi mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda inflyatsiya ikki xonali raqamlarda bo'lib kelgan bo'lsa, Koreyada u doimo 2–3% oralig'ida saqlanmoqda.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Inflyatsiya darajasi har qanday mamlakat iqtisodiy xavfsizligining asosiy indikatorlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, inflyatsiyaning yuqori darajasi nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikni izdan chiqaradi, balki aholining real daromadlarini kamaytiradi, investitsion muhitni yomonlashtiradi va ijtimoiy beqarorlik xavfini kuchaytiradi. Shu bois inflyatsiyani maqbul darajada ushlab turish, uni aniq iqtisodiy strategiyalar bilan boshqarish iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim shartidir. O'zbekiston va Janubiy Koreya misolida o'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki,

inflyatsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun tizimli yondashuv zarur. Janubiy Koreya 1990-yillardan boshlab qat'iy pul-kredit siyosatini joriy etib, inflyatsiya darajasini 2–3% oralig'ida barqarorlashtirishga erishgan. O'zbekistonda esa 2017-yildan boshlab iqtisodiyotning liberallashtirish va bozor mexanizmlarining faol ishlashi natijasida inflyatsiya yuqori bo'lgan davrlar kuzatilgan, ammo so'nggi yillarda uni pasaytirish yo'lida muhim yutuqlar qayd etilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash nuqtayi nazaridan inflyatsiyani nazorat qilishning quyidagi yo'nalishlari ustuvor ahamiyat kasb etadi:

1. Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish. Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetlash siyosatini davom ettirish, foiz stavkalarini bozor tamoyillari asosida shakllantirish va milliy valyuta barqarorligini ta'minlash zarur.
2. Mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish. Aholining iste'mol savatchasida katta ulushni egallagan oziq-ovqat va iste'mol tovarlari importiga qaramlikni kamaytirish maqsadida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga soliq va kredit imtiyozlarini kengaytirish lozim.
3. Narxlar monitoring tizimini kuchaytirish. Bozor infratuzilmasi rivojlanmagan hududlarda sun'iy narx oshirilishining oldini olish uchun raqamli kuzatuv tizimlarini keng joriy etish muhim.
4. Ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish. Inflyatsiyaning ijtimoiy ta'sirini yumshatish uchun past daromadli qatlamlarga manzilli yordam ko'rsatish, pensiyalar va nafaqalarni inflyatsiya darajasiga mos indeksatsiya qilish zarur.
5. Energetika va transport xarajatlarini optimallashtirish. Energiya resurslarining tejamkor iste'molini rag'batlantirish va logistika tizimini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish inflyatsiya bosimini pasaytiradi.

Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash faqat inflyatsiyani pasaytirish emas, balki barqaror iqtisodiy boshqaruv madaniyatini shakllantirishni ham talab qiladi. O'zbekiston sharoitida bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pul-kredit siyosati, fiskal boshqaruv, ishlab chiqarish diversifikatsiyasi va ijtimoiy siyosat o'rtasida muvozanatni saqlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish O'zbekistonning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu maqsadda xalqaro tajribani, xususan, Janubiy Koreya modelini moslashtirish orqali mamlakatimizda narxlar barqarorligini saqlash, aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. G'ofurova Lola QDTU assistenti / Гофурова Лола ассистент КГТУ / Gofurova Lola assistant KSTU

► gafurovalola208@gmail.com

■ 0009-0006-9783-8468

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Inflyatsiya va pul-kredit siyosati bo'yicha yillik hisobot", 2024. cbu.uz
2. WorldData.info. "South Korea Inflation Rates", 2024. worlddata.info
3. Tashkent Times. "Uzbekistan Inflation 2020 Report", 2021. tashkenttimes.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi. "Milliy iqtisodiy xavfsizlik va inflyatsiya", Toshkent, 2022.
5. Janubiy Koreya Markaziy banki. "Monetary Policy Report 2023", Seoul, 2023.
6. Mankiw, N. G. Principles of Economics, 9th Edition, Cengage Learning, 2021.
7. Blanchard, O. Macroeconomics, 7th Edition, Pearson, 2020.

Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik

Малый бизнес
и частное
предпринимательство

Small business and
private entrepreneurship